



**MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI QO'LLAB –  
QUVVATLASHNING TASHKILIY – IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**



**Jumaniyazova Sharifa Rashidovna**

Ma'mun Universiteti NTM

"Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm infratuzimasini rivojlantirish bo'yicha fikrlar bayon etilib, turizm infratuzilmasini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan va shular asosida xulosa shakllantirilgan

**Kalit so'zlar:** turizm, turizm infratuzilmasi, joylashtirish vositalari, turoperatorlar, mintaqqa iqtisodiyoti

**Аннотация.** В статье излагаются идеи развития туристической инфраструктуры, анализируются пути совершенствования организационно-экономических механизмов поддержки туристической инфраструктуры и делаются выводы на их основе.

**Ключевые слова:** туризм, туристическая инфраструктура, средства размещения, туроператоры, региональная экономика.

**Abstract.** The article presents ideas for the development of tourism infrastructure, analyzes ways to improve organizational and economic mechanisms for supporting tourism infrastructure, and draws conclusions based on them.

**Keywords:** tourism, tourism infrastructure, accommodation facilities, tour operators, regional economy.

### **Kirish**

Hozirda iqtisodiy taraqqiyotning asosi sifatida xizmatlar sohasini rivojlantirish, xususan turistik xizmatlarga alohida e'tibor qaratishda deb bilishmoqda. Buning uchun turistlarni jalg qilish, turistlar uchun zaruriy sharoitlarni yaratish, bir so'z bilan aytganda turistik infratuzilmani shakllantirish talab qilinadi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar mavjud bo'lishiga qaramasdan soha taraqqiyotini ta'minlashda oqsoqliklar kuzatilmoqda.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sayohat va turizm sektori 2022-yilda oldingi yilga nisbatan 22 foizga oshishiga erishildi va jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 7,6 foizga yetdi, ammo bu ko'rsatkich 2019-yildagiga nisbatan 23 foizga pastligicha qolmoqda [1]. Mintaqada turizm sektorini rivojlantirish samarali va inkiyuziv ish o'rnlari yaratish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlash uchun infratuzilmani shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish - bu turistlar uchun qo'shimcha qiymatli turizm xizmatlarini yaratuvchi alohida obyektlar uchun talabni qondirishning kompleks yondashuvidir. Mintaqada yangi mehmonxonalar va dam olish maskanlari qurish, transport xizmatlari, muhandislik, elektr energiyasini to'liq ta'minlash, sport inshootlarini qurish, zamonaviy plyajlarni shakllantirish kabi infratuzilma muammolarini hal etish mintaqada tabiatan keng ko'lamli ishlarni talab qiladi.

Har bir hududda turistik xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, turistik xizmatlarning sifatini yaxshilash, diversifikatsiya qilish va turizm infratuzilmasini kengaytirish orqali turizm tarmog'ini milliy iqtisodiyotning etakchi strategik sektoriga aylantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilash, hamda mintaqalarni turizm infratuzilmasini zamonaviy tendentsiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uning yo'nalishlarini ishlab chiqishda nimalarga asosiy e'tibor qaratish lozimligini o'rganish bugungi kunda mamlakatimiz turizmi oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Chunki, turizm infratuzilmasini har tomonlama strategik rivojlantirish va takomillashtirish ko'plab muammolarni hal etishda yondashuvar imkonini beradigan jarayondir [2]. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan omillarning respublikamizda yetarli darajada mavjudligi va rivojlanganligini ko'rsatish mumkin. Xususan, qadimiy va tarixiy qadamjolarning ko'pligi, milliy urf-odat va an'analarga boyligi va haligacha saqlanib kelinyotganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi, eng asosiysi respublikamizning Buyuk Ipak yo'li markazida joylashganligi kabi bir qator omillar turizmni rivojlantirish uchun motiv vazifasini bajaradi va ma'lum darajada turizm infratuzilmasini tabiiy ravishda shakllanganligini ko'satadi.

"Turizm infratuzilmasi", "turistik infratuzilma", "mintaqaviy turizm infratuzilmasi" tushunchalarini mohiyatini tushuntirish, ta'riflash masalalari odatda me'yoriy, strategik va dasturiy boshqaruv hujjalardan, turizm sohasidagi ilmiy va maxsus adabiyotlarda keltiriladi.

M.R Boltaboev, I.S.Tuxliev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov [3] turizm infratuzilmasini turistik faoliyatni amalga oshirishda turistlarning turistik resurslardan bemalol foydalanishini ta'minlovchi bino va inshootlar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari shu jumladan, yo'llar axborot texnologiyalari, turizmning turli xil xizmat ko'ratish korxonalari va ularni kerakli darajada ishlatish va ta'minlash sifatida talqin qilinadi.

V.M. Ivanova [4] turizm infratuzilmasi nafaqat turizmning o'ziga xos ijtimoiy xizmatlari, balki turistik resurslarga normal kirishni ta'minlaydigan va turizm sohasi bilan bog'liq bo'lgan telekommunikatsiyalar, yo'llar, korxonalarni o'z ichiga olgan inshootlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari kompleksi sifatida ham tushunilishi kerak deb ta'rif beradi.

I.V.Zorin [5] esa turizm infratuzilmasini tizimning ishlashi uchun asos yaratadigan va ta'minlaydigan o'zaro bog'liq xizmat tuzilmalari yoki ob'ektlar majmuasi sifatida qaraydi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni umumlashtiradigan bo'lsak turizm infratuzilmasini turistlarning yuqori sifatli va xilma-xil xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy faoliyat turlaridan tashkil topgan o'zaro bog'liq funksional va murakkab tizim sifatida qarash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot uchun mintaqada turizm infratuzilmasini qo'llab-quvvatlashning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar turizm infratuzilmasi nisbatan rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida to'plangan. Tadqiqot jarayonida kompleks baholash, qiyosiy va qiyosiy tahlil, statistik va dinamik yondashuv va guruhash usullaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar

Turizmni rivojlantirish dasturini tuzish turizm sohasida kamroq tajribaga ega bo'lgan davlat va xususiy sektorlar uchun ushbu sohani rivojlantirish rivojlantirish bo'ycha ko'rsatmalarga ega bo'lish imkonini beradi. SHuningdek ushbu dastur orqali turizmning turli xil bevosita va bilvosita iqtisodiy foydalariga erishish mumkin. Mukammal ishlangan turizm rejasi diqqatga sazovor joylar, obyektlar va infratuzilmani rivojlantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlariga erishish vositasi hisoblanadi. Turizmni rejalashtirish eng yaxshi natjalarga erishish va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini amalga oshirish uchun har qanday yo'naliшhing turizmni rivojlantirish rejasining ajralmas qismi bo'lishi talab qilinadi.

Ammo turizmni rejalashtirishda mos usulni tanlash to'g'ri yo'naliшhga ega bo'lishning kaliti hisoblanadi. Shu sababdan mintaqada turizmni rejalashtirish masalalariga kengroq e'tibor qaratib o'tildi, chunki rejalashtirishga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, shunga mos ravishda rejalashtirish usullari shakllantirilgan. Mintaqada turizmni rejalashtirishning yondashuvlari va usullariga qisqacha to'xtalib o'tamiz (1-jadval)

### 1-jadval

#### Mintaqada turizmni rejalashtirishning yondashuvlari va usullari.<sup>1</sup>

Yondashuvr va usullar	Mazmuni
<b>Tizimli yondashuv</b>	Tizimni tushunish va tahlil qilish uchun tizim haqida yetarli ma'lumotlar mavjudligini talab qiladi.
<b>Kompleks yondashuv</b>	Turizmni rivojlantirishning barcha jihatlari keng miqyosda tahlil qilinadi va rejalashtiriladi.
<b>Integratsiyalashgan yondashuv</b>	Turizm o'z ichida yaxlit tizim sifatida rejalashtirilgan va ishlab chiqilgan hududning umumiy rejasi va rivojlanish sxemasiga kiritilganligi
<b>Ekologik va barqaror yondashuv</b>	Mavjud bo'lgan tabshiy va madaniy boyliklardan kelajakda doimiy foydalanimishi rejalashtiriladi va boshqariladi.
<b>Jamoaviy yondashuv</b>	Rejalashtirish hudud aholisi uchun muhim hisoblanadi. Mahalliy aholiga o'z jamiyatining kelajakdagi rivojlanishini rejalashtirishda ishtirok etish imkoniyati berilishi bilan ifodalanadi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

6.	<b>Amalga mumkin yondashuv</b>	<b>oshirish bo'gan</b>	Turizm rejasi, siyosati va tavsiyalari amaliy va erishish mumkin bo'lgan tarzda ifodalangan.
----	--	----------------------------	--

Fikrimizcha, mintaqada turizmni rejalashtirishning yuqorida keltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshirilsa maqsadlarni belgilash, ushbu maqsadlarga erishish uchun muqobil yo'nalishlar yoki harakatlarni tanlash, tanlangan alternativ yo'nalishlarni amalga oshirish, shuningdek ularni samarali yoki samarasizligini aniqlash uchun tanlovlarni baholash jarayonini amalga oshirishga yordam beradi.

Fikrimizcha, mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish uchun dastlab, Turizmnинг mintaqasi iqtisodiyotiga ta'sirining muammoli tomonlarini tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, turizmni rivojlantirish bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Biz, ushbu muammolar va ularni echimi masalasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz (1-rasm).

Turizmni rivojlantirish mintaqasi iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning muhim yo'nalishlari sifatida qaralsada, qator muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Eng muhim muammolardan biri mavsumiylik hisoblanadi, ya'ni turizm mavsumiy xususiyatga ega bo'lishi mavsumda bandlik darajasini oshib ketishi, mahsulotlarga talabning yuqori darajaga etishi kuzatilsa, mavsumdan tashqari davrlarda ishsizlikning oshib ketishi kuzatiladi. mazkur muammoni echish hududdagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillari hisoblanadi. SHu sababdan turizm rivojlangan hududlarda mavsumdan tashqari davrlarda talab va narxni barqarorligini saqlash uchun mavsumdan tashqari davrlarga xos bo'lgan turizm turlarini rivojlantirish. Turizm industriyasining mavsumga bog'liq bo'limgan turlarini rivojlantirish kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, turizmni rivojlanishida muhim omil bo'lgan transport tizimi bilan bog'liq muammolarni kelib chiqaradi. Ya'ni, mintaqada turistlar sonini oshishi sharoitida ularning transport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish imkoniyatini etarli bo'lmaslidir. Misol uchun ushbu davrda temir yo'l, havo yo'li uchun biletlarni topilmasligi, narxlarni oshishi kabilardir. Shu sababli, ushbu davrda charter reyslarni tashkil qilish muhim yechimlardan biri bo'lishi mumkin.

### Turizmning mintaqqa iqtisodiyotiga ta'sirining muammoli tomonlari

Muammolar	Mavsumiylik	Transport muammolar	Oziq-ovqat muammolar
Yechimlar			
<p>- Mavsum va mavsumdan tashqari davrlarda talab va narx barqarorligiga erishish;</p> <p>- Dam olishning mavsumdan tashqari shakllarini rivojlantirish;</p> <p>- Turizm industriyasining mavsumga <u>bog'liq</u> bo'lmanan turlarini rivojlantirish.</p>	<p>- Logistika tizimini takomillashtirish;</p> <p>- Charter reyslar tashkil qilish;</p> <p>- Turistik sinfga mansub transport vositalari soni va assortimentini ko'paytirish;</p> <p>- <u>Qo'shi</u> davlatlar bilan transport hublarini tashkil qilish.</p>	<p>- Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish;</p> <p>- Oziq ovqat ta'minotini yangi manbalarini izlab topish;</p> <p>- Oziq-ovqat ta'minoti bo'yicha strategik sheriklarga ega bo'lish.</p>	

#### 1-rasm. Turizmning mintaqqa iqtisodiyotiga ta'sirining muammoli tomonlari va ular yechimlari<sup>2</sup>

Bundan tashqari qo'shni hududlar va davlatlar bilar transport hublarni tashkil qilish ham ushbu muammoning echimi sifatida qaralishi mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammo ham turistlarni etarli va sifatli mahsulotlar ta'minlashda savollarni keltirib chiqarishi mumkin yoki mavsumda tanqisligining kuzatilishi mumkin. Shu sababdan bunga qarshi choralarни ko'rish lozim, ya'ni qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hisobiga muammoni echish, yangi va strategik hamkorlarga ega bo'lish lozim.

Keltirib o'tilgan muammolarni echishda turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sohani turli dastaklar yordamida qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ammo, o'rganishlarimiz natijalariga ko'ra turistik infratuzilma obyektlari sonini oshishi va xizmatlar hajmini ko'payishiga qaramasdan turistlar soni va turistik xizmatlardan tushumlarga ta'sirini mavjud emasligi aniqlanilmoqda. Bu esa o'z navbatida sohani qo'llab quvvatlashda tashkiliy – iqtisodiy mexanizmalarni takomillashtirishni talab qiladi.


Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanishning takomillashtirilgan shaklda qo'llash shartlari ishlab chiqildi (2-rasm). Iqtisodiy mexanizmlardan foydalanishda inson omilini rolini kamaytirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish masalasiga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni, turistik infratuzilmalari

<sup>2</sup> Manba: muallif ishlanmasi

obyektlari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantiriladigan elektron platforma ishlab chiqilishi taklif qilinmoqda. Ya'ni, har bir sub'ekt mazkur platformaga a'zo bo'lgani holda faoliyatining umumiyligi natijalarini avtomotik ravishda qayd qilib borishi talab qilinadi va olingan ma'lumotlar asosida hisoblaniladigan mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar asosida ularga iqtisodiy imtiyozlarni qo'llash bo'yicha qaror qabul qilinishi mumkin bo'ladi.

Mazkur platforma asosida aniqlanadigan muhim ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar keltirib o'tildi, ya'ni salohiyatdan foydalanish darajasi, xorijiy turistlar ulushi hamad rentabellik darajasi.

Har qanday subyekt iqtisodiy imtiyozlardan foydalanish uchun avvalo elektron platformaga ya'zo bo'lishi talab qilinadi, natijada uning faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar avtomatik ravishda platformada qayd qilinib boriladi. Platforma avtomatik ravishda hisoblash va guruhlash dasturi bilan ta'minlangan bo'lib, har-yili oxiriga a'zo bo'lgan sub'ektlarning keltirib o'tilgan uchta ko'rsatkich bo'yicha taklif qilinayotgan mezonlar asosida uchta guruhga ajratadi. Natijada har bir guruh belgilangan me'yorlar darajasidagi soliq imtiyozlari va ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning ma'lum ulushiga ega bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritadi.



**2-rasm. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning taskiliy – iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanishning takomillashtirilgan shakli<sup>3</sup>**

Mazkur platformani shakllantirish va uni amaliyatga joriy etish qator iqtisodiy muammolarni bartaraf etish imkoniyatini yaratib beradi:

1. Sohadagi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish;
2. Sohada raqobatni qo'llab-quvvatlash;
3. Iqtisodiy mexanizmlardan manzilli ravishda foydalanish;

<sup>3</sup> Manba: muallif ishlansasi

4. Xorijiy va mahalily turistlarning optimal nisbatini shakllantirishga ko'maklashish;

5. Resurslarni samarsiz foydalanuvchilardan samarali foydalanuvchilarga qayta taqsimlanishiga erishi;

6. Samaradorlikni oshishi va yashirini iqtisodiyotni kamayishi hisobiga soliq tushumlarini oshirish va boshqalar.

Taklif qilinayotgan tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanishning takomillashtirilgan shakli mintaqada turizmni rivojlantirishni ta'minlagani holda turistik faoliyatdan to'laqonli foydalanish imkoniyatini yaratadi, shuningdek kapitalning turizmni samarasiz yo'nalishlaridan samarali yo'nalishlariga oqib o'tishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar mavjud, jumladan obyektlar sonidagi o'sish ta'minlangan bo'lsada, ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan turistlar sonida kamayishlar kuzatilmoqda. Bu esa mavjud resurslardan samarasiz foydalanishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan iqtisodiy mexanizmlardan samarali foydalanish va bunda inson omili ta'sirin kamaytirish maqsadida takomillashtirilgan shakli ishlab chiqildi va unda iqtisodiy imtiyozlardan foydalanish qator samardorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lab qo'yildi

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://wttc.org/research/economic-impact#:~:text=In%202022%2C%20the%20Travel%20%26%20Tourism,only%2023%25%20below%202019%20levels>
2. Jumaniyazova Sh.R, Directions of improving the development of tourism infrastructure in Khorezm region. Экономика и предпринимательство. -ISSN 1999-2300, 2021/9
3. M.R Boltaboev, I.S.Tuxliev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov "Turizm:nazariya va amailyot" Darslik, Toshkent-2018
4. Иванова В.М. Туризм: основы, направления, структура / В.М. Иванова. М.: ИД «Феникс», 2008. 265 с
5. Зорин И.В. Туризм как особый вид деятельности / И.В. Буйленко. М.: КНОРУС, 2010. 367 с.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

